

orqali kapital bozorida tijorat banklarining vositachilik faoliyati yo'lga qo'yiladi va institutsional investorlar faolligini oshirish imkoni paydo bo'ladi;

Uchinchidan, tijorat banklarining kapital bozoridagi faoliyatida riskni to'g'ri baholash va kamaytirish maqsadida onlayn moliyaviy konsalting, investitsion kraudfanding, moliyaviy risklarni baholovchi blokcheyn texnologiyalari, robo-maslahatchilar kabi zamonaviy moliyaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Bugungi kunda xalqaro amaliyotda onlayn moliyaviy konsalting, investitsion kraudfanding, moliyaviy risklarni baholovchi blokcheyn texnologiyalari, robo-maslahatchilar kabi zamonaviy moliyaviy texnologiyalardan nafaqat moliyaviy xizmatlar uchun, balki investitsion xizmatlar uchun ham foydalanish imkoniyati yuzaga kelgan. Tijorat banklarining kapital bozoridagi faoliyatida onlayn moliyaviy konsalting, investitsion kraudfanding, moliyaviy risklarni baholovchi blokcheyn texnologiyalari, robo-maslahatchilar kabi zamonaviy moliyaviy texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida inson omili kamayishi va blokcheyn texnologiyalari qo'llanilishi hisobiga moliyaviy risklarni pasaytirish, operatsion xarajatlarini qisqartirish hamda umumiy moliyaviy natijalarni yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uzse.uz/executions/top10_listing - "Toshkent" RFB rasmiy sayti ma'lumotlari
2. <https://www.uzse.uz/abouts/uzstatistics> - "Toshkent" RFB rasmiy sayti ma'lumotlari

INSTITUTIONAL INVESTORLARNING MAMLAKAT FOND BOZORIDAGI ROLI

Temirova Shirin Shomuxammadovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi tayanch doktoranti

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida korxonalarining investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish, shuningdek, investorlarga daromad olish imkonini yaratadigan fond bozorlari iqtisodiy o'sishning muhim omili sanaladi. Mazkur bozorlarning samarali faoliyat yuritishi ishtirokchilar, xususan, institutsional investorlarning faolligiga bevosita bog'liq. Institutsional investorlar - bu yirik moliyaviy aktivlarni boshqaradigan va uzoq muddatli investitsiyalarga e'tibor qaratadigan tashkilotlar. Ularga pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari va rivojlanish banklari kiradi.

Banklar bugungi kunda an'anaviy kreditlash va depozit jalb qilish kabi funksiyalardan tashqari, investitsiya faoliyatining muhim ishtirokchilaridan biri sifatida qaralmoqda. Jahon bankining 2023-yilgi hisobotida, rivojlangan

mamlakatlarda bank sektorining fond bozoridagi ulushi o'rtacha 36 foizni tashkil etishi, hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 12-18 foiz atrofida ekanligi qayd etiladi. Mamlakatimiz misolida, tijorat banklari tomonidan chiqarilgan obligatsiyalarni olib qaraydigan bo'lsak, 2020-2023-yillarda 450 milliard so'mdan 1,2 trillion so'mgacha oshganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu ko'rsatkichlar fond bozorida banklarning ishtiroki izchil kuchayib borayotganligini ko'rsatadi. Bu esa fond bozorlari salohiyatini yanada kuchaytirish maqsadida institutsional investorlar faolligini oshirish masalasini yanada dolzarb qiladi.

Banklar investitsiya faoliyatini o'z mablag'lari, qarzga olingan va jalb qilingan mablag'lar yordamida amalga oshiradilar. O'z mablag'lari bank faoliyati davomida unga bevosita tegishli bo'lgan mablag'larni ifodalaydi. Ushbu mablag'lar kutilmagan yo'qotishlardan himoya qiluvchi elementlarni tashkil etadi. Bularga asosan ustav kapitali, daromad va boshqa ichki manbalar kiradi. Qarzga olingan va jalb qilingan mablag'lar to'plash usuli bo'yicha depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar sifatida tasniflanadi. Bankning investitsiya jarayonida ishtirok etishining asosiy yo'nalishlari qatoriga investitsiya maqsadlari uchun mablag'larni jalb qilish, investitsiya kreditlari berish, qimmatli qog'ozlar, aksiyalarga investitsiya qilish kiradi.

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi eng barqaror yo'nalishlardan biri bo'lib, qat'iy xalqaro talablarga javob beradi. Buni O'zbekiston bank tizimiga "barqaror" reyting bergan xalqaro Moody's agentligining bahosi tasdiqlaydi. Fitch Ratings, Standard & Poor's va Moody's kabi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan o'tkazilgan baholarga ko'ra, mamlakatdagi 15 ta yetakchi tijorat banki ham "barqaror" reytingga ega bo'ldi [4]. Xalqaro amaliyot shuni ko'rsatadiki, bank tizimining kapitallashuv darajasi uning to'lov qobiliyati va barqarorligining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Bundan tashqari, kapitalning yetarliligi bankning likvidlik holatini yaxshilashga yordam beradi va uning faoliyatidagi xavflardan kelib chiqadigan yo'qotishlarni oldini olishga imkon beradi.

Prognozlarga ko'ra, agar O'zbekistonda bank sektori tomonidan fond bozori orqali jalb qilinadigan investitsiya hajmi yillik 20-25 foizga oshirilsa, 2030 yilga kelib kapital bozorining YaIMdagi ulushi 15 foizga yetishi mumkin. Natijada iqtisodiyotda uzoq muddatli resurslarning ko'payishi, real sektor uchun investitsiya muhitining yaxshilanishi va umumiy moliyaviy barqarorlikka erishiladi [3]. Bu esa iqtisodiy siyosat va moliyaviy tartibga solishda tijorat banklarining fond bozoridagi ishtirokini tizimli o'rganish, mavjud imkoniyatlarni chuqur tahlil qilish, qolaversa tahdidlarni oldindan ko'ra bilish va ularga qarshi choralar ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shunga qaramasdan, 2023-yilda tijorat banklari kichik biznesga jami 45,2 trillion so'm (yil oxiridagi Markaziy bank kursi bo'yicha taxminan 3,6 milliard dollar) miqdorida kreditlar berdi. Biroq, ushbu kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yiliga 22% ni tashkil etdi, bu esa ularni ko'plab tadbirkorlar, ayniqsa, yangi ish boshlayotganlar uchun imkonsiz qildi [1]. Bunga sabab sifatida, hozirgi

kunda, milliy kapital bozorining salohiyati to'liq ishga solinmayotganligi, institutsional investorlar bazasi nisbatan cheklanganligi va ularning investitsiya jarayonlari to'siqlar yoki cheklovlar bilan yuzlashayotganligini keltirish mumkin [2]. Natijada iqtisodiyotda investitsion faollik darajasi past bo'lib qolmoqda.

Bizningcha ushbu vaziyatda faollikni oshirish maqsadida birinchi navbatda institutsional investorlar uchun kerakli bo'lgan qulay tartibga solish muhitini ta'minlash zarur. Bunga insvestorlar huquqlarini himoya qilish, korporativ boshqaruv standartlarini oshirish va moliyaviy hisobdorlikni ta'minlash orqali erishish mumkin. Bundan tashqari, bozor infratuzilmalarini takomillashtirish orqali ishonchli axborot tizimlarini tadbiq etish eng muhim omillardan biri sanaladi. Shuningdek, soliq tizimini soddalashtirish orqali maxsus rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarni joriy etish pirovard natijani ta'minlash uchun zarur. Bu orqali ular yanada ko'proq aktivlarni mahalliy fond bozorlariga yo'naltirishlarini ta'minlash mumkin bo'ladi. Faollikni oshirish faqat kapital bozorini rivojlantiribgina qolmay, balki butun iqtisodiy tizimni samarali va barqaror qiladi. Shu sababdan institutsional investorlar uchun qulay bo'lgan muhitni yaratish davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joizki, institutsional investorning bozorga kirishi va samarali faoliyat olib borishi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy omillarga ham bog'liq. Ular mustahkam siyosiy muhit, valyuta kursining barqarorligi va barqaror moliyaviy siyosat kabi omillarga ahamiyat beradi. Buning aksi o'laroq, siyosiy beqarorlik, soliq tizimidagi turli xil o'zgarishlar va korrupsiyaning borligi va rivojlanishi ularning ishtirokini qisqartirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, fond bozorida institutsional investorning faolligini ta'minlash muhim strategik vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifani amalga oshirish orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, xorijiy va mahalliy investorlarni ko'paytirish va mamlakatning moliyaviy sektori baqarorligini oshirishni kafolatlaymiz. Shu bois, hukumat institutsional investorlar uchun qulay muhitni yaratishi, ularning ishtirokini rag'batlantirishi va monitor tizimlarini yo'lga qo'yishi fond bozorini samarali ishlashini ta'minlaydi deb xisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абудхакимов Э. Роль институциональных инвесторов в финансовом обеспечении малого бизнеса: возможности стабильности и развития. Том 4 №1, (2025): IV Республиканская научно-практическая конференция «Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка». с. 231-234

2. Atabayeva S.B. Qimmatli qog'ozlar bozorida institutsional investorlar ishtirokini yanada samarali tashkil etish. *Международный научный журнал «Научный импульс»*. № 39 (100), часть 1, Ноябрь, 2025. 44-47 b.

3. Nomozov S. Tijorat banklarining fond bozorida ishtiroki: imkoniyatlar va tahdidlar. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 2, April 2025. 1-8 b.*

4. Парпиев Б.Б. Роль банков в развитии крупных институциональных инвесторов национального рынка. Ученый XXI века. 2016. № 3-2 (16). с. 59-63

MOLIYA BOZORIDAGI XORIJIY INVESTITSIYALARNING QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINI KENGAYTIRISHDAGI ROLI

Xujayev Xurshid

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sohalar va tarmoqlardagi har bir bosqichda qo'shimcha qiymat yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonlarni samarali tashkil etish maqsadida qo'shilgan qiymat zanjiriga e'tibor qaratilmoqda. Qo'shilgan qiymat zanjiri mahsulot yoki xizmatning dastlabki xomashyo bosqichidan boshlab yakuniy iste'molchiga yetib borishigacha bo'lgan barcha jarayonlarda qiymat yaratish tizimi hisoblanib, har bir bosqichda mahsulotga yangi qiymat qo'shib borishini nazarda tutadi. Qo'shilgan qiymat zanjiri iqtisodiyotda resurslardan boshlab yakuniy iste'molgacha bo'lgan jarayonlarda qiymat yaratishning asosiy mexanizmi bo'lib, xomashyo qazib olish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, logistika, marketing va sotuv bosqichlarini yagona tizimga birlashtiradi. Mazkur jarayonlarni yanada samarali tashkil etishda iqtisodiyotdagi ishtirokchilar aksariyat hollarda qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj sezadi. Shu sababli iqtisodiyotdagi ishtirokchilari faoliyatiga moliya bozori orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda bu orqali qo'shilgan qiymat zanjirini samarali tashkil etish zarur.

Umumiy holda global qo'shilgan qiymat zanjiri o'lchovlari mamlakatlarning xalqaro ishlab chiqarish va savdo tizimidagi o'rnini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ortga bog'langan ishtirok ko'rsatkichi mamlakat eksporti tarkibida xorijiy resurs va komponentlardan foydalanish darajasini ifodalab, ishlab chiqarishning tashqi bozorlarga qanchalik bog'liqligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkich orqali iqtisodiyotning global ta'minot zanjirlariga integratsiya darajasi baholanadi. Oldinga bog'langan ishtirok esa milliy mahsulot va xizmatlarning boshqa davlatlar eksportida oraliq mahsulot sifatida qayta ishlatilishini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich mamlakatning global zanjirdagi strategik rolini va qo'shilgan qiymat yaratish salohiyatini aniqlashga yordam beradi (1-jadval).

Tadqiqotlardan ko'rishimiz mumkinki, so'nggi o'n yilliklarda xorijiy investitsiyalar global qo'shilgan qiymat zanjiri kengayishining asosiy omili bo'lib kelgan. Xorijiy investitsiyalar va global qo'shilgan qiymat zanjiri o'rtasida o'zaro bog'liqlik kuchayib bormoqda. Chunki qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirishdagi asosiy jihatlardan biri bu mazkur jarayon uchun zarur bo'ladigan arzon moliyaviy resurslarni o'z vaqtida shakllantirish hisoblanadi. Xorijiy moliya bozorlaridan xorijiy investitsiya jalb qilish qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish uchun zarur kapitalni shakllantirish imkonini beradi.